

**XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASIDA
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIKNING SHAKLLANISH
TAHLILI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

Doschanov Tangirbergen Doschanovich
i.f.d., professor, Urganch Davlat Universiteti

Matyoqubova Sevara Sultanbekovna
Urganch Davlat Universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mintaqada davlat-xususiy sherkchilikni shakllantirish imkoniyatlari va xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, olingan ma'lumotlarga asoslanib, DXSh loyihalarini samarali boshqarish va amalga oshirishning asosiy xususiyatlarni aniqlashga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat –xususiy sherkchilik, turistik-rekreasiya klasterlar, turizm klasteri.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены возможности и особенности формирования государственно-частного партнерства в регионе, а также на основе полученной информации предпринята попытка определить основные особенности эффективного управления и реализации проектов ГЧП.

Ключевые слова: Государственно-частное партнерство, туристско-рекреационные кластеры, туристический кластер.

ABSTRACT

This article examines the possibilities and features of public-private partnership formation in the region. Also, based on the obtained information, an attempt is made to determine the main features of effective management and implementation of PPP projects.

Keywords: Public-private partnership, tourism-recreation clusters, tourism cluster.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoliy g'arbida, Amudaryo quyi oqimining chap sohilida joylashgan bo'lib, shimoliy va shimoliy sharqdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, janubiy va janubiy g'arbdan Turkmaniston, janubiy sharkqdan Buxoro

viloyati bilan chegaradosh hisoblanadi. Xorazm viloyati mamlakatimizning ulkan turizm imkoniyatlariiga ega bo‘lgan mintaqalaridan biri hisoblanadi. Bugugi kunda viloyatda 255dan ortik madaniy meros yodgorliklari mavjud bo‘lib, ulardan 18 tasi arxeologiya, 132 tasi me’morchilik, 67 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi dikkatga sazovor joylar va 32 tasi mukaddas qadamjoylardir. Bu noyob turistik resurslar, asosan, viloyatning Xiva va Urganch shaharlarida joylashgan. Mamlakatamizning Xorazm viloyatida turizm infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirilishi natijasida joylashtirish vositalari, turoperatorlar, turistik sinfga mansub avtovoztransportlar, gid-tarjimonlar sonini o‘sish tendensiyasini kuzatish mumkinavtovoztransportlar, gid-tarjimonlar sonini o‘sish tendensiyasini kuzatish mumkin.

Mintaqaning turizm salohiyatini baxolash muayyan mintaqaga va butun mamlakat miqyosida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Turizm sanoati rivojlanishini aniqlash uning parametrlarini to‘g‘ri tanlanganligiga, statistik ma’lumotlarning aniqligiga bog‘liq. Shuningdek mamlakatimiz mintaqalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Xorazmning turistik imkoniyatlarga boy maskan ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish, viloyatimizga xorijiy va mahalliy sayyoohlarni yanada ko‘proq jalb qilish, infratuzilmani yaxshilash, turizm sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko‘lamini yanada oshirish, soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, sayyoohlар xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha turizm va madananiy meros bosh boshqarmasi, viloyat hokimligi hamda mutasaddi idora, tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish imkoniyatlari

Nº	Hududlar	Imkoniyatlar
1	Yangibozor tumani	Ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari: Amudaryo bo‘yida milliy uslubdagi o‘tovlari, chodirlar qurib tunab qolishga sharoit yaratish va asosan baliqchilik bilan shug‘ullanish uchun shart sharoit yaratish va turli xil baliq taomlaridan taomlar tayyorlash imkoniyatlari, ham mahalliy hamda xorijiy turistlar uchun
2	Shovot tumani	ziyorat turizm: Mintaqadagi mashxur ziyoratgohlardan biri Yusuf Hamadoniy hududini rekonstruksiya qilish, turizm mahallasi tashkil qilib mehmon uylari va ovqatlanish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish
3	Xiva tumani	Eko-ovchilik turizm imkoniyatlari: su’niy va tabiiy ko‘llarda baliqchilik bilan shug‘ullanish
4	Yangiariq tumani	Gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari: “Oqmanit” qishlog‘idagi “Nemis mennonit, lari - yashagan xududda nemislar yashagan davr ko‘rinishini yaratish, shu 7 davrdagi bino va inshootlarni

		qayta tiklash hamda turistik majmuaga aylantirish, Xorazm pazandachilik brendi asosida turistik-rekreasion zona tashkil qilish
5	Tuproqqa'l tumani	Ekoturizm turizmni rivojlantirish imkoniyatlari: Uch o'choq tabiiy landshafti atrofida maxsus sayyohlik zonalarini tashkil qilish, mavjud salohiyatli ko'llar imkoniyatidan foydalangan holda baliqchilini rivojlantirish
6	Urganch tumani	Etnoturizm turizmni rivojlantirish imkoniyatlari: "Ulli hovli" turistik majmuasi va uning atrofida yashovchi turkman xalqi urf-odatlari asosida turistik zona tashkil etish
7	Xonqa tumani	Tibbiyat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari: Tumanda ko'p yillik tajribaga ega bulgan sanatoriyalar va klinikalar mavjud va unda davolanuchilar qo'shni davlatdan jumladan Turkmaniston va Qozog'istondan ham mavjud
8	Xozorasp tumani	Tarixiy-madaniy ko'ngilochar turizmi : Milliy hunarmandchilik sohasining rivojlanganligi, qadimda madaniyat va san'at arboblari o'tganligi, kadimiy urf-odatlар saklab kolonganligi tumanda kungilochar, art turizmini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi
9	Bog'ot tumani	"Qal'ajik qal'a" tarixiy yodgorligi va unda shifobaxsh ko'l, qumning mayjudligi

Taklif qilingan turistik-rekreasiya klasterining asosini innovatsion yondashuvlar, iqtisodiy, ijtimoiy omillar, raqamli platformalar, tashkiliy mexanizmlar, klaster yadrosini rekreasiya va turistik korxonalar, klaster faoliyatini tashkil etishda ishtirok etuvchi klaster kengashi va klaster faoliyatini tashkil etishda ishtirok etuvchi jamoatchilik tashkilotlari tashkil etadi. Klaster tarkibida transport tashkilotlari rekreatnlarni joylashtirish korxonalar, ovqatlanish korxonalar hamda madaniy - dam olish, sanatoriya-profilaktoriylar, sog'lomlashtirish korxonalar, ziyorat turizmi va obyektlari tematik parklar faoliyat ko'rsatadi. Klasterning asosiy vazifasi raqobatbardosh turistik-rekreasiya mahsulotini yaratilish rekreatnlarga taqdim etish hisoblanadi.

Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning SWOT-tahlili

Ichki muhit	
Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
Hududning tabiiy-geografik va iqlimi xususiyatlari	
Xorazm viloyatining geografik joylashuvi sababli mintaqalardan farqli imkoniyatlari, Amudaryo va uning havzasidan foydalanish imkoniyatlari	Xorazm viloyati boshqa turistik mintaqalardan uzoqda joylashganligi
Turizm infratuzilmasini rivojlanishi	
Rivojlanayotgan turli xil transport infratuzilmasi, jumladan modernizasiya qilingan "Urganch" xalqaro aeroporti, Urganch va Xiva	Transport sohasida marketing siyosatini isloh qilinmaganligi, xizmat turlarini modernizatsiya

temir yo‘l vokzallari. Bugungi kunda "Urganch" xalqaro aeroportiga jami 6 ta Charter qatnovlar yo‘lga qo‘yilgan.	qilinmaganligi,mintaqa aeroportida parvozlar geografiyasining kamligi
Bugungi kunda Xorazm viloyatida jami 173 ta joylashtirish vositalari mavjud bo‘lib, shulardan 52 ta mexmonxona, 96 ta oilaviy mexmon uylari, 2 ta mehmon uylari 23 ta xostelni tashkil qiladi	Mehmonxona industriyasida innovatsion texnologiyalarni jalb qilishning susutligi va assosan mavsumda nomer fondlarining yetishmasligi
Yo‘ltanlamas avtomobil(втомобиль внедорожник) soni 16ta,chunki hamma ichki yo‘llar ham talabga javob berolmaydi	Shahar va tumanlarni bog‘lovchi avtobus "shuttle bus"lar qatnovini yo‘lga qo‘yilmaganligi
Viloyatda turizm sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha 1ta olyi ta’lim muassasi va 1ta kasb hunar maktabi mavjud	Turizm sohasida tayyorlanayotgan kadrlar uchun o‘quv dasturlari yetarli talablarga javob bera olmaydi
Madaniy meros obektlarining mavjudligi	
Mintaqaning moddiy va nomoddiy boyliklarini xalqaro miqyosda tan olinganligi,jumladan Xiva Ichan qal'a davlat muzeyi,Xorazm raqsi lazgi Yunesko ro‘yxatiga kiritilgan	Mintaqaning tarixiy-madaniy,arxeologik,ziyoratgoh majmualarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning mavjud emasligi
Mintaqada 3000 yillik tarixga ega tarixiy arxeologik obektlarning mavjudligi jumladan,Xazorasp va Qalajiq qal'a,Yusuf Hamadoniy,Paxlavon Mahmud,Shayx Muxtorvali ziyoratgohlarini turistik resurs sifatida	Mintaqada arxeologik va ziyorat obektlaridan foydalishning pastligi turistik mashrutlar ishlab chiqilmaganligi
Sport, rekreatsion va ishlab chiqarish muassasalarining mavjudligi	
Mintaqaning barcha tumanlarida sport majmualari mavjud	Mavjud bo‘lgan sport muassasalaridan foydalanishning sustligi
Mintaqada 5 ta sanatoriya kurort,18 ta istirohat bog‘lari mavjud	Mahalliy tursitlarning mavjud rekreatsion xizmatlardan qoniqmasligi,yangi xizmat turlarini kamligi
Tashqi muhit	
Imkoniyatlar	
Mahalliy darajada	
Xorazm viloyatini 2021-2022-yillarda mintaqaning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari Dasturi qabul qilingan	Turizm sohasi raqobatbardoshligi va integratsiyalashuvini ta’minlayigan turistik klasterlarlarning mavjud emasligi
Turizm sohasini yanada rivojlantirishda 56 ta huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan	Xorijiy investorlarning mintaqaga turizm rivojiga bo‘shayotgan xisassining pastligi
Milliy darajada	
2019-2025-yillarga borib mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasiga muvofiq,2025 yilga borib 9mln.kishiga yetkazish prognoz qilingan	Mamlakatda YAMi taribida turizm xizmatlarining ulishi kamligi
Mamlakatning geografik joylashuvi,YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan boy madaniy obektlarning mavjudligi	Turizm sohasini xususan madaniyat va sport sohalarini rivojlantirishga kompleks yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha manfaatdor organlarni birlashtiruvchi tizimning yo‘qligi
Xalqaro darajada	

Bir qator mamlakatlar o‘rtasida vizaning bekor qilinganligi,xalqaro sayyoohlar oqimining oshishi,Xitoy,Hindiston,Rossiya kabi mamlakatlarda turistik talabning ortishi	Turli xil ofatlar jumladan pandemiya harbiy siyosiy mojarolar,tabiiy va ekologik ofatlar sayyoohlar oqimini keskin qisqartiradi
Butunjahon turistik tashkilotning QUEST standartlari,mamlakatlarda turistik destinatsiya menjmentini rivojlantirishni va turizm industriyasini sifatini yaxshilashga imkon beradi	Bir qancha rivojlangan mamlakatlar jumladan Yevropa va AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik iste’mol narxlari sezgirligini oshirishga olib keladi va bu o‘z navbatida asosiy turistik mahsulotlarga jiddiy tahdid soladi

Yuqoridagi imkoniyat va kamchiliklardan kelib chiqqan holda,turizm sohasini rivojlantirish orqali, soliq tushumlarini ko‘paytirilishi,yangi ishchi o‘rinlarini ochilishi,mahalliy aholining hayot darajasini yaxshilash,investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantiruvchi iqtisodiy jozibadorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud ekanligi namoyon bo‘ldi. Shuningdek, mintaqada turizm klasterlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xorazm viloyati uchun taklif qilinayotgan turizm klasteri, barcha ishtirokchilarni o‘zaro hamkorligini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xorazm viloyati turizm xizmatlari bozorini talab tomonini tahlil qilish natijasida, sayyohlarga taklif qilinayotgan turistik mahsulotlar va ularni diversifikasiyalashuvini muntazam amalga oshirish, madaniy hordiq chiqarish va ko‘ngilochar tomoshalarni tashkil qilish, turizm xizmatlari sifatini oshirish, turizm sohasida targ‘ibot ishlarini jadallashtirish hamda qulay investisiya muhitini tashkil qilish kabi ustuvor yo‘nalishlar zaruriyat ekanligi asoslandi, Xorazm viloyatida turizm klasterini shakllantirish bilan bog‘liq afzallik va kamchiliklarni tahdid va imkoniyatlarni aniqlash maqsadida turizm sohasini rivojlantirishning ichki muhit va tashqi muhit omillarining SWOT tahlili amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.The European Court of Auditors (2018), "Special Report: Public-Private Partnerships in the EU: Widespread shortcomings and limited benefits", https://www.eca.europa.eu/Lists/ECADocuments/SR18_09/SR_PPP_EN.pdf
2. Market Update. Review of the European PPP Market in 2018 // European InvestmentBank.–2019.– [Электронный ресурс] URL:https://www.eib.org/attachments/epec/epec_market_update_2018_en.pdf
- 3.Xayitov.S - Public-private partnership in ensuring sustainable economic growth// International scientific journal VOLUME 1 ISSUE 5/ UIF-2022: 8.2|ISSN: 2181-3337